

“KELISHILGAN”

Mutaxassislarni xorijda tayyorlash
va vatandoshlar bilan muloqot qilish
bo'yicha “El-yurt umidi”
jamg'armasi ijrochi direktori



_____ A.Bekmurodov

“ 3 ”

iyul

_____ 2024-yil

“TASDIQLAYMAN”

O'zbekiston Respublikasi Oliy
ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi
huzuridagi Bilim va malakalarni
baholash agentligi direktori



_____ M.Karimov

“ 2 ”

iyul

_____ 2024-yil

**Xorijiy davlatlarning nufuzli universitetlari va ilmiy markazlarida bakalavriat
ta'lim yo'nalishi, magistratura va doktorantura mutaxassislik yo'nalishida
ta'lim olish uchun hujjat topshirgan talabgorlarni saralash jarayonida
qo'llaniladigan test varianti
SPETSIFIKATSIYASI**

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim,
fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi
Bilim va malakalarni baholash agentligi
Ilmiy-metodik kengashining
2024-yil 27-iyundagi 6-son
yig'ilishi qarori bilan ma'qullangan

**Xorijiy davlatlarning nufuzli universitetlari va ilmiy markazlarida bakalavriat ta'lim yo'nalishi, magistratura va doktorantura mutaxassislik yo'nalishida ta'lim olish uchun hujjat topshirgan talabgorlarni saralash jarayonida qo'llaniladigan test varianti
SPETSIFIKATSIYASI**

Mazkur test varianti spetsifikatsiyasining maqsadi xorijiy davlatlarning nufuzli universitetlari va ilmiy markazlarida bakalavriat, magistratura va doktoranturada ta'lim olish uchun hujjat topshirgan talabgorlarning (keyingi o'rinlarda – Talabgorlar) quyidagi bo'limlardan bilim va ko'nikmasini aniqlash uchun qo'llanadigan test variantlari strukturasi va unga qo'yiladigan talablarni belgilashdan iborat. Test sinovi bakalavriat ta'lim yo'nalishi uchun alohida, magistratura va doktorantura mutaxassislik yo'nalishlari uchun alohida o'tkaziladi. Mazkur hujjatga aprobatsiyalar natijasida **qo'shimchalar, o'zgartirishlar va tuzatishlar** kiritilishi mumkin.

I. Talabgorlarning yo'nalishlar bo'yicha bilimlarini baholash

Talabgorlarning yo'nalishlar bo'yicha bilimlarini baholash quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

T/r	Yo'nalish	1- bo'lim	2- bo'lim
1	Bakalavr	Tahliliy fikrlash (15 ta savol)	IQ (15 ta savol)
2	Magistratura va Doktorantura	Tahliliy fikrlash (15 ta savol)	Ilmiy-tadqiqot olib borish kompetentsiyasi (15 ta savol)

Universitet hamda ilmiy markazlarning ma'lum kurslarini muvaffaqiyatli o'zlashtirib ketish maqsadida talabgorlarning Tahliliy fikrlashi hamda IQ (bakalavr uchun) va Ilmiy-tadqiqot olib borish kompetentsiyasi (magistratura va doktorantura) test shaklida **o'zbek tilida** sinovdan o'tkaziladi.

Bu yo'nalishlarga doir topshiriqlar talabgorlarning fundamental bilishi lozim bo'lgan bilim, universitet ilmiy markazlarida turli kurslarni muvaffaqiyatli davom ettirishi uchun zarur va yetarli bo'ladigan bilim, ko'nikma va kompetensiyalarni baholashga mo'ljallangan topshiriqlardan iborat bo'ladi.

II. Yo‘nalish sohalari mazmun elementlari kodifikatori

Paragraf	Punkt	Test sinovida baholanadigan mazmun elementi
I. Tahliliy fikrlash		
1	1	Shakllarning aylanishi, geometrik shakllarning fazoda joylashishi, hajmli va yassi shakllarni qo‘shish tasavvur qilish
	2	Xayolan hajmli shakllarni tarkibiy qismlarga ajratish
	3	Shakl va obyektlarni birlashtirish, muhim belgilarini belgilash
	4	Tasavvurda obyektlarning yaxlit qiyofasini, yetishmayotgan qismni tanlash asosida obyektlarning yaxlit qiyofasini yaratish
	5	Obyektlar o‘rtasida mantiqiy bog‘liqligini o‘rnatish
	6	Tasavvurda shakl va obyektlarni muayyan burchakka soat yo‘nalishi bo‘ylab va unga qarshi aylantirish
	7	Shakl va obyektlarni o‘zaro bog‘liqligini va obyektlar o‘rtasida mantiqiy bog‘liqligini o‘rnatish
	8	Amalga oshirilgan harakatlar ketma-ketligini; obyektlarning joylashuvi ketma-ketligini; obyektlarni ishlab chiqarishning muhim belgilarini; obyektlarni ketma-ket o‘zgarish mantig‘ini aniqlash
	9	Tasavvurda obyekt va shakllarni tarkibiy qismlarga ajratish
	10	Butun obyektlardan, obyekt to‘plamidan abstrakt bog‘liqliklarini ajratish
	11	So‘z va tushunchalar o‘rtasidagi mantiqiy qonuniyatlarini tushunish; so‘zlarning o‘zaro mantiqiy bog‘liqligini anglash
	12	Son va harflarning o‘zaro mantiqiy bog‘liqligini; alifboda harflar ketma-ketligining mantiqiy qonuniyatlarini aniqlash
	13	Tushunchalarni klassifikatsiyalash
	14	So‘zlarning o‘zaro mantiqiy bog‘liqligini tushunish, so‘zlarning birlashtiruvchi xususiyatlarini belgilash, so‘zlarning ma’no jihatdan farqlanishini topish
II. IQ		
2	1	Tasvirlar bilan arifmetik amallar, simmetrik shaklni yasash, keltirilgan namuna asosida belgilash
	2	Obyektlarning to‘g‘ri ketma-ketligini aniqlashda keltirilgan ma’lumotni qo‘llash
	3	Obyektning to‘liq tasvirini yaratish
	4	Sonlar qatori, mantiqiy misol va masalalarni, sonli boshqotirmalarni hisoblash

	5	Tushirib qoldirilgan raqamni topish
	6	Sonlar qatorida raqamlar ketma ketligini muhim xususiyatlarini, tushirib qoldirilgan sonni aniqlash, mantiqiy masalalarni, sonli bosh qotirmalarni yechish
	7	Sonlar qatorida sonlarning mantiqiy ketma-ketligini belgilash, tushirib qoldirilgan sonni hisoblashni aniqlash, mantiqiy misol va masalalar, sonli boshqotirmalar yechimlarini, son va shakllarning mantiqiy bog'liqligini topish
	8	Anagrammani yechish
III. Ilmiy-tadqiqot olib borish kompetentsiyasi		
3	1	Ilmiy-tadqiqot metodlari
	2	Asosiy metodologik yondashuvlar
	3	Ilmiy soha adabiyotlarni izlash va tahlil qilish
	4	Ilmiy maqola yozish metodologiyasi
	5	Ilmiy tadqiqot va innovatsiya
	6	Ilmiy tadqiqot va axborot texnologiyalari

III. Test topshiriqlarining turlari

Test varianti topshiriqlari fan bo'limlari va qiyinlik darajasi bo'yicha taqsimlanishiga asoslanib tuziladi. Test varianti asosan to'rtta javob variantli, bitta to'g'ri javobli yopiq test topshiriqlaridan iborat bo'ladi.

Shuningdek, test topshiriqlari varianti turli (oson, o'rta, yuqori) qiyinlik darajasida tuzilgan test topshiriqlaridan tashkil topadi.

Talabgorlarni saralab olishda foydalaniladigan test topshiriqlari variantlarida qiyinlik darajasi bir xilda saqlanib, quyidagicha taqsimlanadi:

Bir variantda 30 ta test topshirig'i bo'lib, variant 7 ta oson, 16 ta o'rta va 7 ta yuqori qiyinlik darajasidagi test topshirig'idan shakllantiriladi.

Test topshiriqlari variantlarining ekvivalentligi quyidagicha ta'minlanadi: har bir variant maxsus kompyuter dasturi asosida shakllantiriladi, ushbu spetsifikatsiyaga muvofiq test varianti topshiriqlari fan bo'limlari bo'yicha taqsimlanadi. Barcha variantlarda qiyinlik darajasi bir xilda saqlangan bo'ladi.

IV. Baholash mezoni

Har bir test topshirig'i quyidagi mezonga ko'ra baholanadi:

- a) agar belgilangan javob to'g'ri bo'lsa, 2 ball;
- b) agar belgilangan javob noto'g'ri bo'lsa, 0 ball.

Berilgan topshiriqlarni bajarishga ajratilgan vaqt 60 daqiqani tashkil etadi.

V. Talabgorlar uchun tavsiya etiladigan adabiyotlar ro'yxati

1. Cambridge International AS & A Level Thinking Skills. Angus Grogono, Colin Hart
2. Cambridge Thinking Skills. John Butterworth va Geoff Thwaites
3. Advanced IQ tests. Philip Carter
4. Succeed at IQ tests. Philip Carter, Ken Russell
5. Психология общих способностей. Дружинин В.Н. 3-е изд. — СПб.: Питер, 2007.
6. Новые IQ тесты. Айзенк Г. - М.: Изд-во Эксмо, 2003.
7. Классические IQ тесты. Айзенк Г. Перевод с англ. К. Савельева. Москва: Изд-во Эксмо, 2011.
8. Прогрессивные матрицы Равена: методические рекомендации. Мухордова О.Е., Шрейбер Т.В. – Ижевск: Изд-во «Удмуртский университет», 2011.
9. IQ: развитие интеллекта и подготовка к тестам: Симон Мартин. Пер. с нем. — СПб.: БХВ-Петербург, 2010.
10. How to write research proposals. M.A. Riazi
11. Shermuxamedova N.A. Ilmiy tadqiqot metodologiyasi. – T.: “Fan va texnologiya”, 2014. – 512 b.
12. Alemasov V., Madaliyeva Sh. Ilmiy tadqiqot: metodologiya, metodika va ijodiyot. – T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2015. – 102 b.
13. Ranjit Kumar. Research methodology a step-by-step guide for beginners. – Sage, New Delhi, 2011. – 415 p.
14. Saifnazarov I., Nikitchenko G.V., Qosimov B.U. Ilmiy ijod metodologiyasi. – T.: Yangi asr avlodi, 2004. – 190 b.
15. To`raqulov X.A., To`raqulov O.X., To`raqulov I.X., To`raqulov U.X. Ilmiy tadqiqot asoslari: 1000 savolga 1000 javob. – T.: Fan va texnologiya, 2019. – 632 b.

Das 